



OILADAGI AJRIMLARNING SHAXS PSIXIKASIGA TA'SIRI

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

Bahodirova Shahnoza Rustam qizi

E-mail: srustamova055@gmail.com

Talipova Feruza Tairovna

Alfraganus universiteti

Psixologiya kafedrası v.b

dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

Annotatsiya. Hozirgi kunda ajrimlarga sabab bo'layotgan omillar, va ularning kelib chiqish sabablari, buning natijasida shaxs psixikasiga ta'sirini keltirib o'tilgan. Yosh bolalarning yetim bo'lib qolishi bu esa jamiyat farovonligiga ta'sir etishi insonlarda turli psixik buzilishlarga sabab bo'ladi, Yosh oilalarning hayoti buzilib ketishiga uchunchi shaxs aralashuvlari sabab bo'lishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Oila, shaxs psixikasi, ajrim, nizolar, stress, konstruktiv, destruktiv, ijtimoiy moslashuv.

ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНЫХ РАЗВОДОВ НА ПСИХИКУ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы, вызывающие рост количества разводов, а также их причины и последствия для психики личности. Отмечается, что дети, оставшиеся без одного из родителей, испытывают психологические трудности, что в целом отражается на благополучии общества. Также анализируется влияние вмешательства третьих лиц в жизнь молодых семей, что приводит к разрушению брачных отношений.



Ключевые слова: семья, психика личности, развод, конфликты, стресс, конструктивный, деструктивный, социальная адаптация.

THE IMPACT OF FAMILY DIVORCE ON AN INDIVIDUAL'S PSYCHE

Annotation. This article examines the factors leading to an increase in divorces and their causes, as well as their impact on an individual's psyche. It highlights that children who are left without one of their parents often experience psychological difficulties, which in turn affects the well-being of society. The article also discusses how third-party interference in young families can contribute to the breakdown of marital relationships.

Keywords: family, individual psyche, divorce, conflicts, stress, constructive, destructive, social adaptation.

Kirish. Hozirda yurtimizda ajrimlar soni ortib bormoqda. Buning asosiy sabablari shaxslarning vaziyatni to'g'ri baholamasliklari nizoni o'z vaqtida hal qilmasliklari va bir birini tushunmasliklari natijasida kelib chiqadi. Oila bu ijtimoiy institut hisoblanib u murakkab jarayon sanaladi. Ammo hozirgi kunda ko'p oilalarning ajrimlari sabab bolalar yetim bo'lib qolib jamiyatga o'z ta'srini ko'rsatadi.

Nizo bu ikki insonning manfaatlari to'qnash kelib birining manfaati ikkinchining manfaatidan ustun kelishi va dunyoqarashlarni bir biriga to'ri kelmasligiga aytiladi. Aslida nizosiz oila bo'lmaydi. Har bir oilada nizolar bo'lib turadi baxtli insonlar hayotda baxtli bo'lishining sababi ularda nizo bo'lmaganida emas, bu nizoni kattalashtirib yubormaganidadir. Nizo bilan nizoni farqi bor. Oilaviy nizolarning eng xarakterlaridan biri bu er- xotin o'rtasidagi nizo hisoblanadi. Hozirda bu oilaviy nizolarning kelib chiqish sabi bu oila to'g'risida noto'g'ri



tasavvurlarga ega bo'lishlari, internet olami(boshqa oilalar hayoti bilan o'z hayotini taqqoslashi) .

Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etishiga ko'ra ularni quyidagi turlarga bo'linadi:

Er-xotin o'rtasidagi nizo

Qayin ota va kelin o'rtasidagi nizo

Qayin ona va kelin o'rtasidagi nizo

Ovsinlar o'rtasidagi nizo

Ota –ona va farzand o'rtasidagi nizo

Qayin ona va kuyov o'rtasidagi nizo

Bu kabi insonlar o'rtasidagi nizolar har bir oilada uchraydi. Ular o'rtasida turli xil nizolarga duch kelishini ko'rishimiz mumki. Bu yuqorida sanab o'tilgan shaxslarning har birini o'zini yosh xususiyatlari ularni status va rollari mavjud bo'lib ana shu psixologik holat bir birlariga to'g'ri kelmay til topa olmaganliklarida nizolarni kelib chiqishini ko'rishimiz mumkin. Psixologik adabiyotlarda konfliktlar odatda “konstruktiv” (jamo) va “buzg'unchi” (ajratuvchi) kelishmovchiliklarga bo'linadi. Ularning paydo bo'lish asoslari muammoning mohiyati, bu muammoning echimi va oqibatlariga, masalan, bo'lish, o'tish, ishtirok etish kabilarga qarab o'zgaradi.

Biriktiruvchi nizoning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar va ularning hal qilinishi ham urning, ham xotinning, butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Agar ular hal etilsa, buning oqibatida oilaning umumiy manfaatlariga oid muammolar o'z echimini topadi.



Ajratuvchi nizolarda ularning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammo va uning yechimi er-xotinlardan birining manfaatiga qaratilgan bo'ladi. Bunday nizolarda bir tomon manfaatining hal etilishi ko'pincha ikkinchi tomon manfaatining boy berilishi hisobiga amalga oshadi. Bunda manfaatidan boy berilgan tomonda norozilik saqlanib qoladi va bu keyinchalik yana kuchayib, navbatdagi nizoning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ajratuvchi nizolarda, nizoning hal etilganiga qaramay, nizoli vaziyat saqlanib qolaveradi.

Bu nizolarni kuchayib ajratuvchi nizoga o'tganda ajrimlar yuz beradi. Bu ajrimlarga ham sabab bo'luvchi omillar mavjud .

Psixologik omil. Bu teprament va xarakterning bir-biriga to'g'ri kelmasligi, dunyoqarashning turli xilligi, xiyonat omili, erta turmush.

Ijtimoiy omil. Er va xotinlarning ijtimoiy kelib chiqishdagi farqlari, Ota –ona , qo'shnilar,qaynona va qaynatalarning roli, er-xotin yoshdagi farqlari, farzandsizlik,

Kriminal omillar. Jinoyat olamiga kirish, soxta nikoh, alkogolizm, jinoyat olamiga kirish, urish, do'pposlash va haqorat.

Oilaviy ajrashishlar asosan quyidagi sabablarga ko'ra sodir bo'ladi:

- ✓ er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik;
- ✓ uchinchi shaxs, qaynona-qaynota yoki qarindoshlar aralashuvi sabab;
- ✓ yoshlarning oila qurishga tayyor emasligi tufayli;
- ✓ moddiy yetishmovchilik, turmush o'rtog'ining ishsizligi va boshqa iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli;
- ✓ farzandsizlik;



✓ tomonlardan birining ichkilik, giyohvand modda yoki boshqa zararli odatlarga berilishi;

✓ ichki va tashqi migratsiya sabab.

Bu sabablarni bartaraf etish uchun ajrimlar oqibatini oldini olish kerak. Buning uchun quyidagi shartlarni bajarish kerak. Agar ajrim shu darajada muhim bo'sa, kattalarning maslahatlariga bu ajrim muqarrar bo'lsa ajraishih kerak va farzand bo'lishdan saqlanish kerak.

Ajralish bu yonginamizdagi insonlarga ta'sir qilmasligi ular ota onamiz farzandmiz hisoblanadi

Ajralib ketgan ota yoki ons bir birini farzandga yomonlab o'tirmasligi kerak Chunki bolaning psixik holatiga katta ta'sir qilishi mumkin.

Ajrashishga uchunchi shaxs aralashuvlari ham ko'p sabab bo'ladi; bu vaqtda er- xotinning munosabat yaxshi bo'ladigan bo'lsa kattalar fikriga qaralmaydi

Ajralish bu so'ngi chora bu qaror yaqinlarning ham hayotiga ta'sir qilishi mumkin shuning uchun yaxshilab o'ylab qaror chiqarish kerak.

Ajrimlarning shaxs psixikasiga ta'siri

1. Ajrimlarning psixologik sabablari

Oilaviy ajrimlar ko'pincha muloqotning buzilishi, hissiy sovuqlik, ishonchsizlik, moliyaviy qiyinchiliklar yoki mos kelmaslik natijasida yuzaga keladi. Har bir oila uchun ajrim sababi turlicha bo'lsa-da, ularning barchasida asosiy omil — emotsional bog'lanishning zaiflashishidir.

Psixologlar ta'kidlashicha, ajrim oldidan uzoq davom etgan nizolar, ruhiy charchoq va befarqlik holatlari kuzatiladi. Bu holatlar shaxsda stress, depressiya va tashvish sindromlarini kuchaytiradi.



2. Ajrimning shaxs psixikasiga ta'siri

Ajrim insonda ruhiy bo'shliq, yo'qotish hissi, o'zini yolg'iz his etish kabi kechinmalarni keltirib chiqaradi. Bu holatda shaxsning o'zini qadrlash darajasi pasayadi, o'z imkoniyatlariga ishonch kamayadi.

- Emotsional oqibatlar: qayg'u, g'azab, xavotir, depressiya.
- Kognitiv oqibatlar: diqqatning pasayishi, salbiy fikrlash, o'zini ayblash.
- Ijtimoiy oqibatlar: ijtimoiy faollikning kamayishi, yangi munosabatlardan qo'rquv, jamiyatdan yiroqlashish.

Ayrim hollarda ajrimdan so'ng inson o'z hayotini qayta qurishga kuch topa oladi, ammo boshqalar uchun bu uzoq davom etuvchi psixologik jarayon bo'ladi.

3. Ajrimning farzandlar psixikasiga ta'siri

Ajrimning eng og'ir oqibatlari farzandlar ruhiyatida namoyon bo'ladi. Bola o'zini aybdor his etadi, ota-onadan birini yo'qotish qo'rquvini boshdan kechiradi.

- Maktab davridagi bolalarda bu o'qishdagi sustlik, inijqlik, tajovuzkorlik orqali namoyon bo'ladi.
- O'smirlik davrida esa mustaqil fikrlashdagi qarama-qarshiliklar, ishonchsizlik, o'zini yakkalash holatlari kuchayadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onasi ajrashgan bolalarda kelajakda o'z oilasida ham shunga o'xshash muammolar kuzatilish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Xulosa . Oila bu shaxsga ta'sir etuvchi psixologik hamda ijtimoiy omil sanaladi, Uning oqibatlari shaxsning psixikasiga ta'sir qiladi. Ajrimdan keyin o'zini yolg'iz , kedaksiz va qadrsiz his qilishlar bo'ladi. Bu kabi depressiv holatlarni



oldini olish uchun ajrimdan keyin qo'llap quvvatlashlar , psixologik yordam va oila maslahati kerak bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2015.
2. Zokirova M. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. V.A. Sysenko. Psixologiya semeynix konfliktov. – Moskva: Nauka, 2003.
4. Ergasheva N. Oila va nikoh psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Meyerson R. Family Conflicts and Mental Health. – New York: Springer, 2017.
6. Xo'jayev B. Inson psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
7. G'aniyeva S. Oilaviy munosabatlarning psixologik xususiyatlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
8. Bowlby J. Attachment and Loss. – London: Basic Books, 1980.
9. Fromm E. The Art of Loving. – New York: Harper & Row, 1956.
10. Nazarov A. Shaxs va jamiyat psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.